

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
rektori _____ M.E.Po‘latov
“ _____ ” _____ 2025-yil

**Akademik halollik, akademik etika, plagiatning oldini olish, sun’iy
intellektdan mas’uliyatli foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar
to‘qnashuvi**

TRENING DASTURI

Annotatsiya

“Akademik halollik, akademik etika, plagiatning oldini olish, sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to‘qnashuvi” trening dasturi institut professor-o‘qituvchilari, talabalari, magistrantlari, doktorantlari va yosh tadqiqotchilarida akademik halollik madaniyatini shakllantirish hamda ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatida akademik etika tamoyillariga rioya etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Dastur akademik halollik, akademik etika, plagiatning oldini olish, sun’iy intellekt texnologiyalaridan mas’uliyatli foydalanish, mualliflik huquqi, intellektual mulkni himoya qilish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish kabi dolzarb yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Trening 1 kun (8 akademik soat) davomida ma’ruza, seminar, interaktiv trening, amaliy mashg‘ulot, guruh ishlari, case-study, taqdimot va savol-javob shakllarida tashkil etiladi. Mashg‘ulotlar davomida ishtirokchilar akademik qoidabuzarliklarni aniqlash va oldini olish, akademik yozuv qoidalariga rioya qilish, ilmiy manbalardan to‘g‘ri foydalanish, sun’iy intellekt vositalaridan etik va mas’uliyatli foydalanish hamda baholash jarayonlarida shaffoflik va xolislikni ta’minlash bo‘yicha amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Dastur yakunida ishtirokchilarning bilim va kompetensiyalari kirish testi, yakuniy test, amaliy topshiriqlar va vaziyatli topshiriqlar (case-study) orqali baholanadi. Trening natijasida ishtirokchilarda akademik halollik madaniyati mustahkamlanadi, ta’lim va ilmiy faoliyatda akademik etika me’yorlariga rioya etish, plagiatning oldini olish, mualliflik huquqini hurmat qilish hamda sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha barqaror amaliy kompetensiyalar shakllanadi.

Tuzuvchi	X.Shakarov - Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i.
Taqrizchilar	N.Ochilova – institut yuriskonsulti A.Azizqulov – ijtimoiy fanlar kafedra mudiri.

Institut talabalari va professor-o'qituvchilari uchun "Akademik halollik, akademik etika, plagiatning oldini olish, sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi" trening dasturi

Treningning maqsadi

Talabalar va professor-o'qituvchilarda akademik halollik madaniyatini shakllantirish, ta'lim va ilmiy faoliyatda akademik etika tamoyillariga rioya etish, plagiatning oldini olish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan mas'uliyatli foydalanish, mualliflik huquqiga hurmatni mustahkamlash hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish.

Vazifalari

- akademik halollik tamoyillarining mazmun-mohiyatini tushuntirish;
- akademik etikaga oid me'yorlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- plagiat va akademik qoidabuzarliklarning oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish;
- sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning etik va huquqiy jihatlarini tushuntirish;
- mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mexanizmlarini o'rgatish;
- ta'lim va ilmiy faoliyatda akademik halollik madaniyatini rivojlantirish.

Ishtirokchilar

- professor-o'qituvchilar;
- talabalar;
- magistrantlar;
- doktorantlar;
- yosh tadqiqotchilar;
- fakultet va kafedra mas'ullari.

Trening davomiyligi

1 kun (8 akademik soat)

O'qitish shakllari

- ma'ruza;
- seminar;
- interaktiv trening;
- amaliy mashg'ulot;
- guruhlarda ishlash;
- case-study;
- savol-javob;
- taqdimot.

Trening dasturi

Vaqt	Mavzu	O'qitish usuli
09:00–09:20	Treningni ochish. Maqsad va vazifalar bilan tanishtirish	Kirish
09:20–10:00	“Akademik halollik tamoyillari va akademik madaniyat”	Ma'ruza
10:00–10:40	“Akademik etika va kasbiy odob-axloq”	Seminar
10:40–11:20	“Plagiat va akademik yozuv asoslari”	Ma'ruza + amaliyot
11:20–11:35	Tanaffus	
11:35–12:15	“Sun'iy intellektidan ta'lim va ilmiy faoliyatda to'g'ri foydalanish”	Trening
12:15–12:55	“Mualliflik huquqi va intellektual mulk”	Seminar
12:55–13:35	“Manfaatlar to'qnashuvi va uning oldini olish”	Seminar
13:35–14:20	Vaziyatli topshiriqlar (Case Study)	Guruh ishlari
14:20–15:00	Yakuniy test va muhokama	Test, savol-javob

Trening mazmuni

Trening davomida ishtirokchilarga akademik halollikning asosiy tamoyillari, akademik etika, akademik firibgarlikning turlari, plagiat va o'z-o'zini plagiat qilish, ilmiy manbalardan to'g'ri foydalanish, akademik yozuv qoidalari, bibliografik havolalarni rasmiylashtirish, sun'iy intellekt vositalaridan mas'uliyatli foydalanish, mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda ilmiy tadqiqot etikasi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar beriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda plagiat holatlarini aniqlash, sun'iy intellekt yordamida tayyorlangan matnlarni tahlil qilish, manfaatlar to'qnashuviga oid vaziyatlarni baholash hamda akademik etikaga oid real misollar asosida muhokamalar o'tkaziladi.

Kutilayotgan natijalar

Trening yakunida ishtirokchilar:

- akademik halollik tamoyillarini chuqur tushunadilar;
- akademik etikaga rioya qilish ko'nikmalarini egallaydilar;

- plagiatning oldini olish va akademik yozuv qoidalarini amaliyotda qo'llay oladilar;
- sun'iy intellekt vositalaridan mas'uliyatli foydalanish tamoyillarini biladilar;
- mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilish talablarini tushunadilar;
- manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va oldini olish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar;
- ta'lim va ilmiy faoliyatda akademik halollik madaniyatini targ'ib qilish kompetensiyasini rivojlantiradilar.

Trening samaradorligini baholash

Trening yakunida ishtirokchilarning bilim va xabardorlik darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- akademik halollik tamoyillarini bilish darajasi;
- akademik etika me'yorlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyati;
- plagiatni aniqlash va uning oldini olish bo'yicha bilim va ko'nikmalar;
- akademik yozuv va ilmiy manbalardan foydalanish kompetensiyasi;
- sun'iy intellekt vositalaridan mas'uliyatli foydalanish bo'yicha bilimlar;
- mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha xabardorlik;
- manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va oldini olish bo'yicha qaror qabul qilish ko'nikmalari;
- amaliy vaziyatlar (case study)ni tahlil qilish va asoslangan yechim taklif etish qobiliyati.

Baholash kirish testi (pre-test), yakuniy test (post-test), amaliy topshiriqlar, guruh muhokamalari, case-study natijalari, savol-javob va ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosida amalga oshiriladi.

Samaradorlik quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi:

- kirish va yakuniy test natijalari taqqoslanadi;
- ishtirokchilarning bilim darajasidagi o'sish foizi aniqlanadi;
- amaliy topshiriqlarni bajarish sifati baholanadi;
- ishtirokchilarning qoniqish darajasi anonim so'rovnoma orqali o'rganiladi;
- trening yakunida tayyorlangan tahliliy ma'lumotnoma asosida keyingi o'quv tadbirlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Monitoring va tahlil

Trening natijalari institutning ichki sifatni ta'minlash tizimi doirasida monitoring qilinadi. Olingan natijalar asosida akademik halollikni rivojlantirish bo'yicha yillik reja va malaka oshirish dasturlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

Mas'ul bo'linmalar

- O'quv-uslubiy boshqarma;
- Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi;
- Ilmiy bo'lim;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi;

- Axborot-resurs markazi;
- Fakultet dekanatlari va kafedralar.

Yakuniy hujjatlar

Trening yakunida quyidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi:

- ishtirokchilar ro'yxati;
- trening dasturi;
- taqdimot materiallari;
- test natijalari;
- baholash varaqalari;
- ishtirokchilar fikr-mulohazalari;
- yakuniy hisobot;
- zarur hollarda sertifikatlar.